IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

ALISHER NAVOIYNING “NASOYIM UL-MUHABBAT” ASARIDA TASAVVUFIY QARASHLAR IFODASI

Sattorova Mahliyoxon Habibullo qizi
Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20079098

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida tasavvufiy qarashlarning ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda bayon etilgan ilohiy ishq, fano va baqo, sabr, tavakkul kabi tasavvufiy tushunchalarning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, avliyolar hayoti misolida komil inson konsepsiyasining badiiy talqini yoritiladi. Tadqiqot davomida asarning Abdurahmon Jomiyning Nafahot ul-uns asari bilan bog‘liqligi ham ko‘rib chiqiladi. Maqolada “Nasoyim ul-muhabbat”ning diniy-ma’rifiy ahamiyati va uning zamonaviy talqindagi o‘rni asoslab beriladi.

Abstract: This article analyzes the expression of Sufi concepts in the work “Nasoyim ul-muhabbat” by Alisher Navoiy. The study explores the essence and interpretation of key Sufi notions such as divine love, fana (annihilation of the self), baqa (eternal existence), patience, and trust in God. Particular attention is given to the portrayal of saints as embodiments of the ideal human being and the representation of spiritual perfection. The article also examines the relationship between Navoi’s work and Abdurahmon Jomiy’s Nafahot ul-uns, highlighting similarities and distinctive features. Furthermore, the religious and educational significance of “Nasoyim ul-muhabbat” and its relevance in the modern context are discussed.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Nasoyim ul-muhabbat, tasavvuf, ilohiy ishq, fano va baqo, komil inson, avliyolar, ruhiy kamolot, tariqat, ma’rifat, haqiqat, diniy-ma’rifiy meros.

KIRISH

Tazkira (arab. — eslatmoq, zikr etmoq) — o‘rta asr forsiy va turkiy tillardagi adabiyotshunoslik janrlaridan biri.Keng ma’noda — tarix, tasavvuf, san’at sohasidagi voqea va shaxslar haqida esdalik ruhidagi asar, mas., „Tazkirat ulavliyo“ (Farididdin Attor), „Tazkirai Muqimxoniy“ (Muhammad Yusuf), „Tazkirai xattoton“ (Rudakiy), „Tazkirai avliyoi turkiy“ (Rushdiy) va boshqa Tor ma’noda — shoirlar hayoti va ijodi haqida ma’lumot, asarlaridan namunalar keltirib tuzilgan to‘plam. Tazkirada bir necha asrda yashagan yoki muayyan davr shoirlarining hayoti va ijodi haqida turli tarzda ma’lumot beriladi. Shoirlarni qamrab olish jihatidan tarixiyzamonaviy va zamonaviy tazkiraga bo‘linadi. Tarixiyzamonaviy tazkirada bir necha asr davomida yashab ijod etgan shoirlar haqida („Lubob ulalbob“ — Avfiy, „Tazkirat ushshuaro“ — Davlatshoh Samarqandiy va boshqalar), zamonaviy tazkirada esa tuzuvchining zamondoshlari haqida („Majolis unnafois“, „Tazkirat ushshuaro“ — Mutribiy va boshqalar) bahs yuritiladi. Asarda shoirlar har xil uslubda — „abjad“ tizimida, sulola va arab alifbosi asosida, geografik uslubda, tazkira tuzuvchi tomonidan shaxsan ko‘rganlik, ijodiy mulokrtda bo‘lganbo‘lmaganlik asosida joylashtiriladi. Shoirlar haqidagi ma’lumotlar alohida kichik maqola — fiqradan iborat bo‘ladi. Unda shoirning ismi, taxallusi, qayerdanligi, ijodi, she’rlaridan namunalar, tabiatidagi o‘ziga xos xususiyati, qay darajada shuhrat topganligi va boshqa she’riy yoki nasriy tarzda bayon etiladi. Ba’zan 2 tilda ma’lumot berish hollari ham uchraydi („Majmuai shoiron“). Tlartuzuvchisining adabiyestetik uslublari qaysi adabiy yo‘nalishiga mansubligi jihatidan farklanadi. Sharq adabiyotshunosligida bizgacha yetib kelgan

dastlabki tazkirani Abu Mansur asSaoyaibiy, o‘zbek adabiyotida Alisher Navoiy yaratganlar. Adabiyot tarixini o‘rganishda tazkiralarning ahamiyati katta.

Alisher Navoiy o‘zbek va turkiy adabiyotning eng buyuk namoyandalaridan biri bo‘lib, uning "Nasoyim ul-muhabbat" asari turkiy tilida yozilgan ilk tazkira sifatida sharq adabiyoti tarixida alohida o‘rin egallaydi. Bu asar nafaqat shayxlar, avliyolar va tasavvuf namoyandalarining hayoti haqida ma’lumot beradi, balki muhabbatning insoniy va ilohiy jihatlarini chuqur falsafiy tahlil qiladi. "Nasoyim ul-muhabbat" turkiy adabiyotda tazkira janrining shakllanishiga katta hissa qo‘shgan bo‘lib, unda tasavvufiy muhabbat tushunchasi she’riy va nasriy uslubda ifodalangan."Nasoyim ul-muhabbat" 15-asr oxirida yozilgan bo‘lib, bu davr Markaziy Osiyo madaniyati va tasavvufiy falsafaning gullab-yashnagan davri hisoblanadi. Navoiy bu asarni yozishda o‘zining ustozlari va tasavvufiy qarashlaridan ilhomlangan. Asarning asosiy maqsadi insonlarni muhabbatning haqiqiy ma’nosiga, ya’ni ilohiy muhabbatga chaqirishdir. Navoiy bu asar orqali o‘quvchilarga tasavvufiy tafakkur va muhabbat falsafasini tushuntirishga intiladi. Ushbu asar tazkira janrida yozilgan bo‘lib, unda yetti yuzga yaqin avliyolar, shayxlar va so‘fiylarning hayoti, ruhiy tajribasi hamda ma’naviy kamolot yo‘llari bayon etiladi. Asar Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” asari asosida yaratilgan bo‘lsa-da, Navoiy uni qayta ishlab, boyitib, turkiy adabiyotga mos holda mustaqil asar darajasiga olib chiqqan.

“Nasoyim ul-muhabbat” asarida tasavvufiy qarashlar turli tushunchalar orqali ifodalanadi. Jumladan, ilohiy ishq, fano va baqo, sabr, tavakkul, zikr kabi asosiy tasavvuf terminlari keng yoritiladi. Navoiy bu tushunchalarni faqat nazariy jihatdan emas, balki avliyolar hayotidan olingan misollar orqali badiiy talqin qiladi. Bu esa asarning ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi. Ayniqsa, ilohiy ishq g‘oyasi markaziy o‘rinda bo‘lib, insonning Allohga bo‘lgan muhabbati uning ruhiy kamolotiga eltuvchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. Asarda keltirilgan shayxlar va avliyolar orqali Navoiy o‘z davrining eng nufuzli diniy va tasavvufiy shaxslarini tanishtiradi. Bu shaxslarning hayoti va ularning muhabbat haqidagi qarashlari asarning asosiy mazmunini tashkil etadi.Tazkira janri sharq adabiyotida shoir va yozuvchilarning hayoti, ijodi va ularning asarlari haqida ma’lumot beradigan adabiy tur sifatida shakllangan.

"Nasoyim ul-muhabbat" bu janrning turkiy adabiyotdagi ilk namunasi hisoblanadi. Asarda Navoiy turli shayxlar, avliyolar va tasavvuf namoyandalarining hayoti va ularning muhabbat haqidagi qarashlarini bayon qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Nasoyim ul-muhabbat” asari Navoiy dunyoqarashining insonparvarlik mohiyatini yaqqol aks ettiradi. Navoiyning o‘zi aytganidek, asar odamlarni ma’naviy kamolotga chorlash, avliyolarning hayoti va karomatlaridan ibrat olish uchun yozilgan. Asarning nomi ham shu ma’noni anglatadi: “Nasoyim” —shimoldan kelgan yengil, musaffo shamollar, “ul-muhabbat” —muhabbat shamollari, ya’ni “Ilohiy muhabbat shamollari” degan ma’noni beradi. “Bu kitob avliyo va oriflar zikri uchun bitildikim, ularning hollaridin ibrat olg‘aylar va ilohiy muhabbat yo‘liga rag‘bat topg‘aylar”.[1]Asarda avliyolar obrazi alohida o‘rin tutadi. Navoiy ularni oddiy inson sifatida emas, balki komillik darajasiga yetgan, nafsini poklagan, ruhiy jihatdan yuksalgan shaxslar sifatida tasvirlaydi. Ularning hayotidagi karomatlar, sabr-toqatlari, Alloh yo‘lida qilgan xizmatlari orqali ideal inson modeli yaratiladi. Shu jihatdan asarda komil inson konsepsiyasi aniq ifodalanadi. Komil inson bu – nafs ustidan g‘alaba qilgan, ma’naviy poklikka erishgan va ilohiy haqiqatni anglagan shaxsdir. Ahmad Yassaviyning ta'rifiga anchagina hajmdor o'rin ajratgan Hazrat Navoiy Xoja Ahmadning hayot yo'li, maslagi, af'oli, ilmi kabi xususiyatlarni mantiqiy izchillikda bayon etadi. "Nasoyim ul-muhabbat"da 611-o'rinda

[1] Erkinov, A. "Alisher Navoiy va tasavvuf". –Toshkent: Fan, 2005.

Ahmad Yassaviy haqida so'z boradi. Ahmad Yassaviyning Turkiston elida mashhur ekanini, shayx-ul mashoyix - shayxlarning shayxi degan rutbaga erishganini, maqomi yuksak va mashhurligi, karomati buyuk va chegarasiz ekani, muridlari-yu suhbatdoshlari bisyor ekani haqida ma'lumotlarni o'qish mumkin. Uning xalq orasida bu qadar mashhur bo'lishi, albatta, tasodif emas. Ulug' shayx yangi tariqatga asos solish bilan birga, bu tariqat maslagini soda she'riy janrlarga joylashtirdi va ayni shu jihat bu tariqatning ham, ulug' pir murshidning ham el orasida mashhur bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu haqda adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul shunday yozadi: "Yassaviygacha ham so'fiyona she'r irshod uchun bir vosita o'laroq qabul qilingan edi. Yassaviy, eng avvalo, ana shu uchun she'rga murojaat qildi. Diniy-tasavvufiy ma'nolar muridlaridan tashqari keng xalq ommasi ongi va qalbidan oson o'rin topishini ta'minlash niyatida she'r imkoniyatlaridan ham mohirlik ila foydalana oldi". [2] Olimning yuqoridagi fikrlarida jon bor. Ahmad Yassaviy muridlari orasida ham, oddiy xalq orasida ham ma'lum va mashhur murshid bo'lgan.

Asarda 770 dan ortiq shayx, avliyo va oriflar haqida ma’lumot berilgan bo‘lib, ular orasida ayol zoti vakillari ham alohida o‘rin tutadi. Navoiy ayol avliyolarni “zohidlikda erkaklarga teng”, “muhabbat va taqvoda yetilgan”, “ma’rifatda sobitqadam” [3]deb ta’riflaydi. Xususan, Robiya al-Adaviya haqida u shunday yozadi:“Robiya ad-daviya muhabbat yo‘lida shunday maqomga yetdiki, uning zikri erkak oriflar zikridan kam emas edi”. Asarda Fotima Nishopuriyya taqvo va ma’rifatda zamonasining peshvolaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, Ummu Ali haqida ham alohida e’tibor bilan so‘z yuritiladi: “Ummu Ali qalb pokligi va sabrda ko‘p shayxlar uchun namuna bo‘lgan”.[4]

Mazkur asarning muhim jihatlaridan biri —unda ayol zoti vakillarining ham alohida ehtirom bilan tilga olinishidir. O‘rta asr sharoitida ayollarning ma’naviy-ma’rifiy faoliyatini e’tirof etish, ularni komil inson sifatida tasvirlash Navoiy tafakkurining ilg‘orligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan “Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi ayollar obrazini ilmiy tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Navoiy ayol avliyolarni “Zohidlikda erkaklarning o‘ziga teng”, “Muhabbat va taqvoda yetilgan”, “Ilm darosida sobit” deb e’tirof etib, ularni tasavvuf tarixi uchun muhim shaxslar sifatida ko‘rsatadi. “Ayol zotidan ham shunday orifalar borki, zohidlik va muhabbatda ko‘p erlardan fozildirlar”.

Asarda keltirilgan ayollar ham ana shu umumiy g‘oyaviy tizimning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular irfon yo‘lida komillikka erishgan, o‘z nafsini yenggan, sabr va taqvo sohibalari sifatida tasvirlanadi. Bu esa Navoiyning insonni ma’naviy mezonlar asosida baholash tamoyiliga sodiq ekanini ko‘rsatadi. Asarda keltirilgan ayol orifalar ilohiy ishq yo‘lida erkaklar bilan teng darajada harakat qilgan shaxslar sifatida ko‘rsatiladi. Ularning ruhiy tajribalari, karomatlari va ma’naviy ta’siri alohida ehtirom bilan bayon etiladi. Navoiy ayolni nafaqat murid, balki irshod beruvchi, ya’ni boshqalarga ma’naviy yo‘l ko‘rsatuvchi shaxs sifatida ham tasvirlaydi. Bu hol tasavvuf an’anasida ayolning o‘rni mavjud va ta’sirchan ekanini tasdiqlaydi. “Nasoyim ul-muhabbat”dagi ayollar axloqiy poklik, sabr, tavozu’ va taqvo bilan uyg‘un holda berilgan. Navoiy ularning hayotini misol qilib, inson uchun eng oliy qadriyat ma’naviy yetuklik ekanini ta’kidlaydi.Asarda zikr etilgan ayollar dunyoviy manfaatlardan voz kechgan, nafs bilan kurashda muvaffaqiyat qozongan shaxslar sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning hayot tarzi orqali Navoiy jamiyatda axloqiy barqarorlik va ma’naviy yuksalishning asosi inson qalbida ekanini ko‘rsatadi.

Tasavvufdagi ruhiy kamolot bosqichlari ham asarda muhim o‘rin egallaydi. Shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlari orqali insonning ichki taraqqiyoti ko‘rsatib beriladi. Navoiy bu bosqichlarni nazariy izohlash bilan cheklanmay, balki turli shayxlar hayoti orqali amaliy

[2] Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф ва шеърият. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991
[3] Erkinov, A. "Alisher Navoiy va tasavvuf". –Toshkent: Fan, 2005
[4] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 1–20 томлар. –Т.: “Фан”, 1987–2004.

misollarda ochib beradi. Bu esa o‘quvchiga tasavvuf yo‘lini yanada tushunarli va ta’sirchan shaklda yetkazadi.

Asarning diniy-ma’rifiy ahamiyati ham nihoyatda katta. “Nasoyim ul-muhabbat” nafaqat tasavvuf tarixini o‘rganishda muhim manba, balki insonni axloqiy jihatdan tarbiyalovchi asar hamdir. Unda sabr, kamtarlik, halollik, mehr-oqibat kabi fazilatlar targ‘ib qilinadi. Shu sababli asar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Mazkur mavzu bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borishda avvalo Nasoyim ul-muhabbat asarining o‘zi asosiy manba sifatida olinadi. Shuningdek, Nafahot ul-uns asari bilan qiyosiy tahlil olib borish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, Navoiy asarlarining akademik nashrlari, o‘zbek adabiyoti tarixi bo‘yicha darsliklar, tasavvufga oid ilmiy tadqiqotlar, xususan Komilovning “Tasavvuf” asari hamda Bertelsning Navoiy haqidagi ilmiy ishlari tadqiqotning nazariy asosini mustahkamlaydi.

“Nasoyim ul-muhabbat” ilohiy ishq, fano va baqo, komil inson, avliyolar, kamolot kabi tasavvufiy ifodalar qo‘llangan.

Ishq – ar. 1. Jo‘shqin muhabbat, haddan oshiq sevgi, ko‘ngil berish, jondan sevish. 2. Tas. Haqning zuhuriga sabab bo‘ladigan dastlabki sifat.

Ilohiy ishq – Alloh ishqi; Allohga bo‘lgan ishq.

Fano – 1. Ar. O‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib ketish, yo‘qlik, hechlik, tugalish, o‘lish. 2. “(Yer) yuzidagi barcha jonzot foniydir. Ulug‘lik va ikrom egasi Rabbingning O‘zigina boqiydir” (“Rahmon”, 26-27). 3. Tas. Qulning o‘z fe’lini ko‘rmaslik holi. Fano – o‘zligi va bandaligi maqomini Haq taolo barobarida yo‘q deb bilmoq, barcha mayl-istak va ta’mannolaridan voz kechib, butun olam va olamdagilar Xudoning oldida hech narsa emasligini teran anglamoq, bashariy sifatlar – yomon axloq va fe’llarni tark qilib, Allohning go‘zal sifatlari va ilohiy fe’llariga erishish, ular bilan botin olamini bezamoq, ya’ni bashariy irodadan ilohiy irodaga ko‘chmoq, narsa va ashyolarning sufiy nazaridan barham topmog‘idir.

Baqo – ar. 1. Abadiylik, mangulik, boqiylik; fanoning muqobili. Ishonch, mavjudlik, davom etmoq. 2. tas. Allohning boqiy do‘sti bo‘lib qolish uchun yomon odatlarni tark etib, barcha yaxshi odatlarga ega bo‘lish. Inson va boshqa narsalarning quvvat va ta’sirini ko‘rmasdan faqat Allohning quvvat va ta’sirini ko‘rish, Allohdan boshqa hech narsani ko‘rmaslik.

Kamolot – tas. Yetukliklar. Vajdi jazbayi tomi Haq, ya’ni Haqning tom bir jazbasi bilan vajdga kelmoq.

«Ahmad Mavlono oz fursatda azim tarbiyatlar topti va ko‘p kushodlar anga yuzlandi va aning kamolotining ovozasi mashhur bo‘ldi va ko‘p toliblar aning suhbatida tarbiyat topib, kamolg‘a yettilar»

Komil inson – Sajjadiyga ko‘ra, «Komil – o‘zi o‘zidan foniy va Haq boqiyligida boqiy kishi. Komil er – piri murshid rahnamoligida tasfiya (tozaris) va tajliya (jilolanish) va shuhud (mushohada) martabalari sari ko‘tarilib, his va aql sarhadlaridan oshib, asmo tajalliyotiga vosil bo‘lgan va Yagonalik nurining shu’lasi ichra yo‘qolib, Ahadiyat baqosida abadiylik topgan va ilohiy sifatlar tahqiqiga va butun zuhurat mazhariga aylangan… barcha shu’unob (sharaflanish) bilan sharaflangan, jahonning xojasiga aylanganini bila turib, bandalik ibodatini kanda qilmagan kishidir».

Avliyo – tas. Valiylar, do‘stlar. Haq taoloni yaxshi tanigan, gunoh ishlaridan saqlanuvchi, qobil va kamtarin kishilar. Ular Haq taoloning do‘stlari va undan qattiq qo‘rquvchi zotlar. Allohning eng yaqin do‘stlari, sevimli qullari demak. Avliyoning karomati haqdir. Shuning uchun u dinda bir dalil o‘laroq qabul qilinur.[5]

Tasavvufiy terminlar izohidan kelib chiqib aytish mumkinki, Nasoyim ul-muhabbat asarida keltirilgan tushunchalar o‘zaro uzviy bog‘liq yagona ma’naviy tizimni tashkil etadi. Alisher

[5] Odiljon Avaznazarov. Mumtoz adabiyot namunalari uchun tasavvuf lug‘ati. “TAVFIQNASHR”. Toshkent, 2025.

Navoiy bu terminlarni alohida-alohida emas, balki insonning ichki poklanishi va ruhiy yuksalishiga xizmat qiluvchi bosqichma-bosqich jarayon sifatida talqin qiladi. Shu bois ilohiy ishq, fano va baqo, sabr hamda tavakkul kabi tushunchalar bir butun holda komil insonni shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi va asarning umumiy g‘oyaviy yo‘nalishini yakdil tarzda belgilaydi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Alisher Navoiyning Nasoyim ul-muhabbat asari tasavvufiy tafakkurni badiiy va ilmiy uyg‘unlikda ifodalagan noyob manbadir. Asarda tasavvufning asosiy tushunchalari – ilohiy ishq, fano va baqo, sabr hamda tavakkul – nazariy izohdan ko‘ra ko‘proq hayotiy misollar orqali ochib berilib, ularning amaliy mazmuni yoritiladi. Avliyolar hayoti orqali komil inson modeli aniq konseptual shakl kasb etadi va bu model nafaqat diniy, balki axloqiy-me’yoriy mezon sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot davomida asarning Abdurahmon Jomiyning ”Nafahot ul-uns” bilan uzviy bog‘liqligi aniqlanib, Navoiy tomonidan mazkur manbaning ijodiy qayta ishlangani va boyitilgani asoslandi. Shuningdek, asarda ifodalangan ruhiy kamolot bosqichlari insonning ichki takomillashuv yo‘lini tizimli tarzda aks ettiradi. Natijada “Nasoyim ul-muhabbat” nafaqat tasavvuf tarixini o‘rganishda, balki komil inson tarbiyasi, ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish va zamonaviy jamiyatda axloqiy mezonlarni mustahkamlashda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkinov, A. "Alisher Navoiy va tasavvuf". –Toshkent: Fan, 2005.
2. Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф ва шеърият. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 1–20 томлар. –Т.: “Фан”, 1987–2004.
4. O.Avaznazarov. Mumtoz adabiyot namunalari uchun tasavvuf lug‘ati. T.: “TAVFIQNASHR”, 2025.
5. https://doi.org/10.5281/zenodo.18887771
6. Sh. Sirojiddinov, D. Yusupova, O. Davlatov. Navoiyshunoslik (darslik). T.: “Tamaddun”, 2019.
7. Quronov, S. "Navoiyning tasavvufiy qarashlari". –Toshkent: Adabiyot va san’at, 2010.
8. Yusupova, M. "Tazkira adabiyoti: tarix va nazariya". –Samarqand: SamDU, 2015.